XALQ DEPUTATLARI KOGON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-avgust VII-15-114-2-208-K/25 Kogon shahar

Kogon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil parametrlarining daromadlari va xarajatlariga o‘zgaritirishlar kiritish to‘g‘risida

Shaharning 2025-yilgi tasdiqlangan budjet parametrlari xarajatlar qismidagi 80 mlrd. 360.9 mln.so‘mlik mablag‘larga qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritish hisobiga 85 mlrd. 274.8 mln.so‘m aniqlangan reja belgilangan. Aniqrog‘i mahalliy budjetning xarajatlari joriy yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag’lari (1 mlrd. 268.0 mln.so‘m) hamda yuqori budjetdan ajratilgan mablag’lar hisobiga jami 3 mlrd. 373.8 mln.so‘m yoki 6 foizga ko‘paytirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 148-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Kogon shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari N.Eshmurodovning, Kogon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil parametrlarining daromadlari va xarajatlariga o‘zgaritirishlar kiritish to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kogon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil parametrlarining daromadlariga kiritilgan o‘zgartirishlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Kogon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil parametrlarining xarajatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Kogon shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari (N.Eshmurodov), shahar davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i bilan birgalikda:

shahar hokimligi bilan birgalikda daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini so‘zsiz ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish. Bunda, prognoz rejani har bir soliq turi kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

byudjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy byudjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;

mahalliy byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash;

byudjet daromadlari va xarajatlari rejasiga o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda hisobga olish, tegishli hududiy byudjet mablag‘ oluvchilarning xarajatlar miqdoridagi aniqlik kiritish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi J.Do‘stov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



TO‘RABOYEV
MIRSHAKAR
MUZAFFAROVICH

Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining
2025-yil 30-avgustdagi
VII-15-114-2-208-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Kogon shahar mahalliy budjeti daromadlariga 2025 yildagi o‘zgartirishlari

Daromadlar turlari nomi	2025 yil 6 oylik			Shundan					
				2025 yil I-chorak			2025 yil II-chorak		
	Tasdiqlangan reja	O‘zgartirishlar	Aniqlangan reja	Tasdiqlangan reja	O‘zgar-tirishlar	Aniqlangan reja	Tasdiqlangan reja	O‘zgar-tirishlar	Aniqlangan reja
Aylanmadan olinadigan soliq	4 535.0	-336.0	4 199.0	1 967.0	-40.0	1 927.0	2 568.0	-296.0	2 272.0
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	13 618.9	-1 092.7	12 526.2	6 487.1	599.5	7 086.6	7 131.9	-1 692.2	5 439.6
Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	498.0	2.0	500.0	236.0	0.0	236.0	262.0	2.0	264.0
Aksiz solig‘i jami	10 753.5	0.0	10 753.5	2 365.5	-1 500.0	865.5	2 796.0	-2 437.8	358.3
Shundan:									
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda	*5 161.5*	*-3 937.8*	*1 223.8*	*2 365.5*	*-1 500.0*	*865.5*	*2 796.0*	*-2 437.8*	*358.3*

to‘lanadigan aksiz solig‘i									
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 987.0	-1 838.0	1 149.0	1 465.0	-600.0	865.0	1 522.0	-1 238.0	284.0
Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	2 721.0	-1 837.0	884.0	1 113.0	-637.0	476.0	1 608.0	-1 200.0	408.0
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 063.0	-4 125.0	938.0	2 643.0	-2 005.0	638.0	2 420.0	-2 120.0	300.0
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 566.0	-649.0	917.0	671.0	-265.0	406.0	895.0	-384.0	511.0
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2 864.0	-912.0	1 952.0	1 307.0	0.0	1 307.0	1 557.0	-912.0	645.0
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	202.0	-67.0	135.0	90.0	0.0	90.0	112.0	-67.0	45.0
Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	27.0	5.0	32.0	12.0	0.0	12.0	15.0	5.0	20.0
Daromadlar jami	**44 835.4**	**-10 849.7**	**33 985.7**	**18 356.6**	**-4 447.5**	**13 909.1**	**20 886.9**	**-10 340.0**	**10 546.9**

Izoh: *Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bidirishnomalari asosida mahalliy budjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.*

Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining
2025-yil 30-avgustdagi
VII-15-114-2-208-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Kogon shahar mahalliy budjeti xarajatlariga 2025 yildagi o‘zgartirishlari mablag‘ oluvchilar kesimida

mln.so‘mda

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tasdiqlangan budjet	Aniqlangan budjet	Farqi	Foizda	Shundan				
						Respublika budjeti	Viloyat budjeti	Ichki	Erkin qoldiq	Viloyat Erkin qoldiq
		87 772.9	**92 686.8**	**4 913.8**	**106%**	**3 373.8**	**-121.1**	**0.0**	**1 261.2**	**400.0**
1.	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	14 393.7	17 767.6	3 373.8	123%		-25.7			
2.	Sport maktabi	5 772.6	5 747.0	-25.7	100%					
3.	Musiqa va san’at maktabi	3 94.2	3 94.2	0.0	100%					
4.	Madaniyat bo‘limi	492.9	514.9	22.0	104%		-3.0		25.0	
5.	Axborot kutubxona markazi	1 393.4	1 434.4	41.0	103%			41.0		
6.	Yoshlar ishlari bo‘limi	2 789.0	2 775.5	-13.5	100%			-13.5		
7.	Obodonlashtirish xarajatlari	19 634.0	20 193.8	559.8	103%		29.8		130.0	400.0
	Shu jumladan:									
I	*Obodonlashtirish boshqarmasi*	*1 646.9*	*2 174.9*	*528.0*	*132%*			*528.0*		
II	*Ichki yo‘llarni*	*4 000.0*	*3 695.0*	*-305.0*	*92%*			*-305.0*		

	ta’mirlash (VM-660)									
III	*Asfalt yotqizish texnikasi (VM-660)*	*760.0*	*613.0*	*-147.0*	*81%*			*-147.0*		
IV	*Maxsus texnika (PF-46)*	*1 005.1*	*929.1*	*-76.0*	*92%*			*-76.0*		
8.	Veterinariya bo‘limi	893.0	887.1	-5.9	99%			-5.9		
9.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 498.0	1 498.0	0.0	100%					
10.	Itisodiyot va moliya bo‘limi	1 962.0	2 39.1	77.1	104%			-59.4	136.5	
11.	Hokimiyat (jamg‘armalar bilan birgalikda)	27 498.0	28 553.6	1 055.5	104%		91.0	38.3	926.2	
12.	Xalq deputatlari kengash kotibiyati	300.0	108.3	-191.7	36%		-213.2		21.5	
13.	Mahalla budjeti	467.0	467.0	0.0	100%					
14.	Xalq qabulxonasi	173.0	194.4	21.4	112%			-0.6	22.10	